

O`ZBEKISTON



RESPUBLIKASI

OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrası



Kurs ishi

Mavzu: TOG'AY MURODNING BU DUNYODA
O'LIB BO'LMAFYDI ROMANI TAHLILI

Bajardi: Tursunboyeva Z.

Tekshirdi: dots.U.Qobilov

Samarqand – 2012

**MAVZU: TOG'AY MUTODNING BU DUNYODA
O'LIB BO'LMAYDI ROMANI TAHLILI.**

1. Kirish

2. Romandagi xarakter va syujetlar

3. Asardagi konfliktlar talqini

4. Xulosa.

1. Keyingi yillar romanchiligining yuksalishda Tog'ay Murodning alohida o'rnini mavjud. Adib 70-yillardayoq adabiyotimizga yorqin yulduz kabi kirib keldi. Uning ilk qissa va hikoyalari o'z davridayoq yuksak baholangan. Istedodli yozuvchi Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" hikoya va qissalardan iborat ilk to'plamidagi xarakterlar yaratish san'atini hayot haqiqatini badiiy tahlil qilish va uslubini namoyon qila olgan adib sifatida nasrimiz yuksalishini yana bir cho'qqi sari etaklaganligi adabiy tanqidchilikda o'z ifodasini haqqoni bahosini olmoqda. Adabiyot jamiyat vijdoni, badiiy so'z san'atkorligi anashu vijdonni harakatga keltirib turishday ma'suliyatli burchni ado qilar ekan ular yurak sadolari yozuvchilik vijdoni, hayqiriqlariga quloq solishga majburdirlar anshu xususiyatlarini o'zida toim ma'noda mujassamlashtirgan adiblardan biri Tog'ay Muroddir. Ammo shu o'ringa sobiq sho'rolar davri ularning inson hayotidagi fojialarga ne chog'lik sababachi bo'lganligiga diqqat qilsak, 70-yillardagi adabiyot va xaqsizliklarni badiiy adabiyotda katta muammo qilib olib chiqishhni o'zi yozuvchidan buyuk bir jasorat talab qiladi. Prizidentimiz I.A.Karimov a'lohida qayd qiloganidek: "...Boz ustiga milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etiladi. Navro'z, Ramazon, Qurbon hayiti kabi ko'plab muqaddas milliy bayramlar taqiq etilgan edi... Milliy o'zlikni harakati fidoiylarini nomlarini xalqimiz xotirasidan o'chirib tashlashga harakat qiladi."

"Biroq keng xalq ommasining ozodlik erk, mustaqillik yo'lidagi bunday harakatlari mustramlakachi zodagonlar tomonidan shafqatsiz jihatda bostirildi. Ular ko'z ko'rib quloq eshitmagan turli fojialarni xalq va mamlakat boshiga to'kib solganlari, zulm va adolatsizliklari ham

cheksizlik sari intiladi. Shuning uchun ham haqsizlik va adolatsizlik qilishga erksevar xalq farzandlari, xalq so'zini aytishga intilgan fidoiy insonlar boshiga hamisha tahdid solib turaveradi. Oqibatda turli yillarda xalqimizning ozodlik va mustaqillik uchun kurashga ne-ne mard o'g'lonlari nohaq qurbon bo'ldilar.

O'zbek romanchiligi keyingi yillarga kelib, davr qahramonlarini yaratishda va ularda hayotning murakkab muammolarini, turmushning eng muhim ijtimoiy qatlamlaridagi siljishlarni zamondoshlar tafakkuridagi o'zgarishlarni umumlashtirib, individuallashtirib bera olish san'atini namoyon qiladi. Istedodli so'z san'atkorlari o'z qahramonlari xarakterini kashf etish jarayonida turmushda uchrab turuvchi tasodifiy xususiyatlar va muammolarni emas aksincha inson shaxsining tuyb mohiyati va o'zagini tashkil etuvchi, nisbatan barqaror va davr bilan birgalikda unga hamohang ravishda boradigan xususiyatlariga ijtimoiy turmush va muhit tasirida takib topgan asosiy iroda yo'nalishini belgilovchi etakchi jihatlarga tayanadi.

Ana shu nuqtai nazardan istedadli romannavis Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" romani ham ijtimoiy hayotdagi qarama-qarshiliklarni Dehqonqul obrazi orqali haqqoniy ko'rsatib bergan. Mustamlaka davrida o'zbek xalqining qiyinchiliklarga, hatto ustma-ust fojialarga duchoq qilingani ham moddiy va ma'naviy jihatdan ezilganligini ko'rsatish "Otamdan qolgan dalalar" romanining asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Asarda xalqimizning 130-yillik tarixi mustamlakachilik siyosati ayovsiz fosh etilgan va keskin qoralangan. Demak Bu roman mustaqillik sharofati tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy siyosi roman. Asarda hayot haqiqati haqqoniy yoritib berilgan.

Asarning bosh qahramoni Dehqonqul o'zbek xalqining timsoli sifatida tasvirlangan. Asarda uch avlod vakillari Jaloliddin Ketmon, uning o'g'li Aqrab va uning farzabdi Dehqonqul obrazi orqali hayotimizning fojiali qirralarini mahorat bilan yoritib bergan.

Istedodli adibning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanini ham inson xarakteri uning ichki kechinmalari, ayanchli hayoti Botir Firqa obrazida o'z ifodasini topgan. Anashu nuqtai nazardan kurs ishining keyingi sahifalarida Botir Firqa xarakterining tasviri, adibning xarakter yaratish mahorati, asar syujeti, badiiy konflikt ya'ni poetik xususiyatlar hamda yozuvchi uslubi haqida fikr yuritamiz.

2. Bugungi kunda jahon romanchiligi bilan bahsga kirishayotgan romanchiligimiz taraqqiyoti yo'lida yozuvchilarimiz olib borayotgan ijodiy izlanishlar, badiiy talqinlar o'z yo'lini topish uchun urinishlar, izlanishlr o'zining samarasini bermoqda. yangi o'zbek romanini yaratishda Tog'at Murodning alohida o'rnini qayd etish zarur. O'zbek romanchiligida yangi badiiy-estetik tamoyillar yuzaga kelishi va shakkalanib ma'lum bir ijobiy shakl shamoyilga ega bo'lishi uchun o'n yilliklar juda qisqadir. Xuddi shu qisqa fursatda yozuvchilarimiz milliy romanchiligimiz taraqqiy etish uchun o'z individual uslublariga ega bo'lishi yillar davomida tazyiq ostida yashagan ong ozod bo'lishi krrakligini to'liq anglab etganligi ozi nihoyatda sezilarli holdir.

Asarning bosh qahramoni ya'ni xarakter darajasiiga ko'tarilgan obreaz Botir Esanovdir. "Tagi ko'rmanda gilam bitmasin Qodiqqulni chevarasi, Xolmat malayni nevarasi, Eson xizmatkorning bolasi Botir Qushchi tumandan aynib keldi. Qo'shchi kalandimog-kalandimog qadam bosdi. kibar-kibar quloch otdi, kermaqosh-kqrmqosh otdi.

Asarning boshlaridayoq tasvirlangan bu hollardayoq Botir Esanovning xarakter xususiyatini o'ziga xos bir jihati haqida o'quvchida ma'lum bir tusghunchalar uyg'onadi. Bu shaxsning Qodirqulning chevarasi, Xolmat malayning nevarasi, Eson xizmatkorning bolasining nima ucxhun tumandan feli aynib kelishi sababalarini tushunish uchun asarga yana jiddiyroq yondashadi.

Asardagi ilk sahifalardan o'rin olgan Botir Qoshchi va Qorovul o'rtasidagi dialogda ham ularning o'ziga xos Xarakter xususiyatlari ochib beriladi; "...Qartovulni imladi Qorovuyl hadaha-hadaha keldi. Narvon poyida hayrona-hayrona turdi. qoshi uzra kaft

sarbon eta-eta mo'ltaydi. chaqirganday bo'ldingizmi? – dedi. – xalqni yig'ing! Botir Firqa mag'ribga boqib qadam oldi, mashriqqa boqib qadam oldi. Shu holatni ko'rgan qorovul gapni kulgi-mutoyibaga olishga harakat qiladi. Chunki uning soddaligi, beg'uborligi, sofdililigi namoyon bo'ladi. “- Xal keladi aytabering!” Ammo ana shunday munosabatlar zahirida besh-olti dehqonni kelishi unga oddiygina qilib, “ – Sen sinbatingizni daladan ko'rdik. – Tumanda nima gaplar bor gapiring, qani? – Qani tumandan gurgung bering, qani?” – degan hayqiriqlaridan biroz o'ziga keldsada, o'zini tumandan kim bo'lib tanishtirish maqsadida gap boishlashi ularni ensasini qotiradi. Bironnima deyishga o'zlik qilib turganda ulardan biri uning yoniga borishi: “– Menga qara Botir. – dedi.– Otangni ko'rdim, enangni ko'rdim tovonni yoriq deydilar. Otan mul nima qilasan osmonga chiqib, tush pasga, tush? –degan gaplaridan biroz o'ziga kelganday bo'ldi-yu, o'zini kimligini tanishtirishni lozim topadi.

Bu o'rinda yozuvchi Botir Esanov xarakterini yaratishda dehqonlar gap so'zlari, hatti harakatlari orqali davr ijtimoiy hayoti shart-sharoitlarga alohida diqqatini qaratadi. asar davomida uning insoniy qiyofasini istiroblarini asosli yaratib beradi. Chunki inson ham, jamiyat ham tabiat farzandi. Uning ijtimoiy muhitdan ajratib tasvirlab bo'lmaganday, tabiiy muhitdan ham alohida yulqib olib tasvirlash mumkin emas. Adib butun syuje linyasida inson muhitining bir-biriga bog'liqligini ochib berishga poetik xususiyatlar orqali namoyon qilishga harakat etadi.

Romanda borgan sari tasvir chuqurlashadi va voqelikning ayrim tomanlari bir-biriga zid qo'yish kuchayadi. Romanning syujet

linyasi ham kengayib boradi. Botir Esanov katta ijtimoiy muhitning keng doirasida harakat eta boshlaydi.

Botir Firqa bir vaqtlar O'zbekiston poytaxti bo'lgan Samarqandda ma'lum muddat siyosiy o'qishni bitirib keladi. anshundan keyin suvjet mantig'idagi o'ziga xosliklar yanada reallashadi.

Asar tasvirlari tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsning ijtimoiy – estetik mohiyati shundan iboratki, u bir tomonlama, asosan mehnat fonida taraqqiy etgan. Shaxsiy hayoti o'z yaqinlariga mehr e'tibor oila oldidagi burchi, ikkinchi o'ringa tushib qolgan. Hayot ilinjida bir burda zog'ora non topish mashaqqatini o'z boshidan kechirgan bir davr ekanligini anglaymiz. Shaxs taraqqiyoti uyg'unligining buzilishi ko'ngilsiz holatlarga olib kelganligi asolangan. O'sha davr voqealarining tasviriga nazar tashlasak iqtisodiy siyosat addiy xalqni og'ir mehnatga muhtalo qilish bilab birga natijada qashshoqlanib jismonan ojizlanib qolmasdan ayni paytda ma'naviy poklanishlikga ham yuz tutgan. Asardagi Zaynabning holatiga nazar tashlasak u onai zor har qanday qiyinchilikga e'tiroz bildirmaydi yoki, shu maylda biron afsus nadomatni sezdirmaydi. Chunki Zaynabning ijtimoiy adolatsizlik shaxs taraqqiyotidagi o'zgarishlar shu darajada iztirobga solganki, uning jamiyatdan noroziligi ham qalb qo'ridan o'rin olganidan dalolat beradi.

Istedodli yozuvchi Tog'ay Murod asrimiz boshidagi qatag'on davrining fojialarini umumlashirishga harakat qilgan chunki asrimizning boshlaridagi millat ziyolilarining og'ir hayoti bilan bir qatorda o'sha davrdagi xalqimizning ma'naviy, barkamol insonlarini, tuzim va mafkuraning ma'lum darajada teran anglaydigan shaxslartning turli chet o'lkalarga ketish sabablari ham ma'lum tushunchalar bayon

qilingan. O'z davrining qurboniga aylangan Mirza Xo'ja boyga o'xshash shaxslarni, ulardan qolgan avlodlarning fojiali taqdirini ularning zurriyodi bo'lgan farzandlarga nisbatan tuzimning shafqatsizligini haqqoniy tasvirlashga erisha olgan. Bu o'rinlarda Botir Firqaning nafaqat ma'naviy qiyofasi, balki insoniy xususiyatlari ham oydinlashadi. Chunki Mirza Xo'ja boyning oilasi bo'lgan Zaynabga nisbatan ham mehr uyg'onishi har tandir non yopganida "bir dona non" unga in'om etishi uning insoniy fazilatini namoyon qilmaydimi? Bu zog'ora nonni ham tunning yarmida birov bilmasin zamon yomon juda yomon fikrlarni o'z xotiniga qayta-qayta tayinlab jo'natishi shundan dalolat bermaydimi, axir o'z farzandini ochdan o'lmaslik uchun bir burda nonga almashtiradigan og'ir bir sharoitda Mir4za Xo'ja boydek shaxslarning zurriyodiga yordam berishi o'sha davr uchun juda katta iroda talab qilar edi.

Chunki, sovet tuzimida qarshi shaxs sifatida o'limga mahkum etilishi, qanchadan-qancha to'hmatu bo'htonlarga qolishini bir ko'z oldimizga keltiraylik. To'g'ri, Botir Firqa xarakterida mujassamlashib borayotgan shaxs sifatidagi ya'ni tuzimning qurboniga aylanayotgan oddiy o'zbek ziyolisi sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Asarda tasvirlanganidaek "Non dema, – dedi. Nonni otini atama", – kabi tushunchalar onaning farzandini saqlab qolish uchun qilgan hatti-harakatlari o'z farzandini ayanchli hayotini o'zgartira olmaydigan bir o'zbek ayolining qiyofasida gavdalanadi.

1934-1935-yillarda "Non chuchukdan chuchuk bo'ldi, non shirindan shirin bo'ldi" kabi tasvirlar orqali o'sha davrning hayotini xalqimizning ayanchli qismatini ko'rsatishga intilgan. Bizga ma'lumki,

bu davr hayoti nafaqat shafqatsizliklardan balki, ochlikga mahkum etilgan bir xalqning hayoti ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Hatto kulbalarda bekasi bilan xo'jasi uzuna tushib o'lib yotgan. Shuningdek, bekasi bag'rida qizalog'i, xo'jasi qo'ynida o'g'ilchasining ochlik azobidagi o'limi– dav fojiasi edi.

Anashu davrning qurboniga aylangan oddiy xalqning Botir Firqadek faollari mavjudligini ular esa tuzmning qiyofasini o'zgartirishga harakat eta olmasligini juda asosli badiiy tasvirlar orqali yoritib berilgan. “Shunda botir firqa boshliq faollar tumabn sari yo'l oldi. Kattalarga murojat etdi. Mozoristonga sog' joy qolmadi, – dedi Botir Firqa. – butun tumanga shunday, – dedi kattalar. – Biz yuqoriga xabar berdik yordam beramiz, - Ungacha jasadlarni qayerga qo'yamiz?– Topiladi, tirikka topilgan er o'likka ham topiladi.

Ko'rinadiki, inson hayotini uning taqdiri kulfatlari Botir Firqadek shaxslarni ma'lum darajada larzaga solayotgani buni oldini olish uchun harakat etayotganligi, afsuski bular ya'ni jamiyatning yirik vakillari, ularning layoqatligi haqqoniy ko'rsatilgan.

“Bu dunyoda o'lib bolmaydi” romanida voqealar tasviri syujet mantig'ini hosil qilgan bo'lsa, xuddi shu silsilaga Botir Firqa xarakteri ham o'z badiiy tadqiqini topib boradi: “Xayriyat qo'llarini ko'rganini ko'rib qolmadi, xayriyat” debv xotirjam bo'ladi. Bu o'rinda tuzumning zulmkoorligi namoyon bo'lsa, uning tipikl vakili Botir Firqa ham o'z ruhiyatini ichki dunyosini, ma'naviy dunyosini, ichida qul'on o'qidi, namoyon qildi. Shu vaqtda kamandir “rangingiz oqarib ketibdi, qo'rqingizmi?– dedi kamandir. – Yo'q... nega qo'rqaman, deya

ming'illadi Botir Firqa. U o'liklardan emas aksincha kamandirning biror holatini sezib qolganmi degan tushunchalardan rangi oqargan edi.

– Rangingiz dokaday oqarib ketibdi? Yana – tag'in dudug'lanayapsiz? – ha endi... ee– yurtchilik, o'rtoq kamandir, ee– yurtchilik. O'z el yurtingiz emasmi, odamga picha og'ir botar ekan. Uncha-muncha malol kelar ekan.

– O'rtoq rais, bu haqda buyruq bor, buyruq! – deya ovozi ko'tardi kamandir/ – Buyruq. Bu tasvirlarda kamandirning qay darajadagi faoliyati namoyon bo'layotganligini ko'rsak, ikkinchidan, Botir Firqanming insoniylikdan uzoqlashishga o'sh tuzim majbur etganligini ko'ramiz.

Voqealarning izchil davom etishi natijasida Kamandirning “siz bizning ishlarimizga ya'ni buyruqni bajarayotganligimizdan norozimisiz”, – degan so'rog'iga juda qiynalib javob beradi. “Unday demang, unday demang...– deya duduqlandi. – Axir, men... Firqaman, Firqa. Firqa bo'lsangiz nega ikkilanayapsiz”, – deya qilgan malomatlariga o'ziga xos tarzda javob beradi.

Botir Firqa barcha voqealar silsilasida etakchi qahramon sifatida izchil harakat etib o'z xususiyatlarini namoyon qilib boradi. Shuningdek asardagi kamandir obrazi bilan birgalikda harakat qilsada, uning insoniylik tushunchalariga zid borishga majbur ekanligini ko'ramiz.

3. Badiiy konflikt sotsial konflikt asosida yaratilsada, ular birbirlaridan ajralib turadi. Biz “Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi” asaridagi badiiy konfliktni o’ziga xos turlari orqali jonlantirib berishini ko’ramiz. Badiiy konflikt Botir Esanov va ijtimoiy muhit o’rtasida, Botir Firqa va xarakterlar o’rtasida hamda uning ichki dunyosidagi qarama-qarshiliklar asar konfliktini namoyon qilgan.

Konfliktning ananaviy usullari qarama-qarshi xarakterlar kurashi bilab bog’liq bo’lsa uning kolleziyali ko’rinishi asosida qahramonlarning ruhiy dunyosi, ongi, segilari va psixologiyasidagi ziddiyat ham o’z ifodasini topishi kerak. Lekin ularning biri ikkinchisiz tasavvur etib bo’lmaydi: “Hovuzdan chiqib keldi. moyagini mashina ustiga tshladi. Kamandiri oldiga keldi. – Tag’in uchtasini olib keldik, – dedi birovi.

– Ikkita desayam bo’ladi. bitta moyagini bolacha, – dedi ikkinchisi. –menimcha bolasi bo’lsa kerak, bag’riga bosib yotibdi. – Bolasi o’g’ilmi – Qizmi?– so’radi kamandir– Kim qarabdi o’rtoq kamandir. Ishqilib bir go’dak odamda”. Bu voqeaning guvoih bo’lib turgan Botir Firqa ajab tovur ovoz eshitiladi.

Firqa alng-jalang qilib u yoqdan- bu yoqga qaraydi. Ovoz ko’kdan kelayaptimi yo yerdan chiqayaptimi, bilmadi. Bir ko’kga qaradi, bir tevarakga qaradi, bir NKVD chilarga qaradi. Anashunday bir holatda Botir Firqaga qarab kamandir imo qildi: “–O’radan kelayapti, o’radan, – dedi.” Shunda Botir Firqa dahshatga tushdi va hovuzga quloq sola boshladi. Ne ko’z bilan ko’rsinki, ovoz hovuzdan kelardi. Botir Firqa ko’zlarini yumib ovoz kelgan tomonga yura boshladi. Jasadlar Tepasiga borib ularga qaray boshladi. Xuddi shunda Mirzaxo’jaboyni bevasini

ko'radi. ularga bir dona bo'lsa ham zog'ora non berib turganligini esga oldi. Ichidagi allanimalarni, yuzaga chiqarishga ikkilanib turardi. U yuragini changallab-changallab qo'yadi:

– U – u – uh!... – deya oh urdi: Tirik, tirik! o'rtoq kamandir, ular tirik! Kamandir sheriklariga yuz soldi. – Darhaqiqat, ular hali nafas olmoqda-ku? –dedi. To'g'ti tirik, to'g'ri! – dedi birovi. Lekin hozircha tirik, hozircha!

– Tushunaman, o'rtoq rais. Ammo ular baribir... o'ladi-da, oladi! nima yeb jon saqlaydi?

Botir Firqa ijtimoiy muhitdagi shaxslart bilan birinchi marta qattiq konfliktga boradi. Ularning yaxshiyiligini ko'rib turib chidab turolmaydi. Ammoi ular Botir Firqaga gumonsirab ham qaraydi.

“Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi asarida birinchi galdayoq kishini hayratga soladigan narsa shundan iboratki, adib asar boshidanoq uyg'onishni ko'rsatishga qaratilgan Botir Firqa xarakterini voqealar, konfliktlar orasida shakllantiradi. Botir Firqa o'zligini anslashga qilgan harakatlarini ko'rish mumkin. Bu kabi holatlar tasirida ijtimoiy qarama-qarshiliklar silsilasini yanbada teranroq anglaymiz.

Adibning konflikt va xarakterni shu darajada mahorat bilan uyg'unlashtiradiki, bu ham yozuvchi istedodidan dalolat beradi.

Shu yo'l bilan u o'tmishning qabix tomonlarini ochib berishga harakat qiladi. Sobiq sho;rolar davrining bir yoqlama olib borgan siyosatini, unung naqadar og'ir ayanchli qirralarini badiiy tasvirlar orasida reallashtirib o'quvchiga etkazib berishga intiladi.

“Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” romanidagi bosh konflikt Botir Firqa bilan ijtimoiy sharoit o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu

ziddiyat o'z mohiyati bilan sobiq sho'rolar davridagi aks ettirilayotgan voqealar silsilasida o'z tasvitini topib beradi. Bu esa asardagi badiiy konfliktning bosh nuqtasi deb qaraladi. Anashu ziddiyatning asarda ham asosiy konflikt sifatida olinishining o'zi yozuvchining katta muvofiqiyatlaridan biri sifatida belgilash mumkin. Chunki sho'rolat tuzimi davrining ilk boshlanish jarayonida insonning qadr-qimmatini ne chog'lik erga urilganligi o'ttizinchi yillardagi ma'naviy qashshoqlikning boshlanishi inson hayotida naqadar larzalar olib kelganligi bilan ham belgilanadi. Bu holatlar hali to'laligicha o'z ifodasini badiiy tasvirini topmaganligini bu haqiqatni ilk marta Tog'ay Murod talqin qilganligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Yuqorida qayd qilingan asosiy konflikt esa o'z novbati bilan boshqa yordamchi konfliktlarning xarakter yo'nalishlarini belgilaydi. Ularning markazi sifatida o'ziga bo'y sindiradi. Bu aks ettirilayotgan davr hayotidagi qarama-qarshiliklarning markaziy nuqtasi edi. Chunki oddiy xalqimizning boshga tushayotgan ayanchli voqealar ko'z ko'rib quloq eshitmagan holatlarda ham o'z ifodasini topganligi tasvirlardan teranroq anglab olamiz.

Asardagi uchli drammatizm chuqur trigizm bularning yani jamiyatning qobig'iga o'ranib borayotgan insoin qiyofasini jamiyatdagi rolini ko'rsatish uchun ifodalanadigan tasvirini mahorat bilan ko'rsata oladi. Anashu tasvirlardan so'ng tuzumning o'ziga xos tomonlarining ifodalab beradi.

Tog'ay Murodning badiiy konfliktning o'ziga xos qirralaridan mahorat bilan foydalanadi. Avvalo ijtimoiy kategoriyaga manosida ma'lum hayotiy kurashni jamiyat taraqqiyotidagi ziddiyatlarini anglatadi

shu hayotiy mazmunga asosan, asarga asos qilib olingan konflikt badiiy – esteti xarakterda bo'ladi. Adib sho'rolar davri voqealari asosida obrazlarni umumlashtiradi. va konkretlashtiradi, hamda tipiklik qonuniyatlaridan kelib chiqib, Botir Esanov xarakteridagi konfliktni ham asosida ko'rsatadi.

“1956- yil bo'ldi O'zbekistonda televizor jotiy bo'ldi... Botir Firqa qishloq xo'jaligi\, xalq xo'jaligi, sanat sohasida erishilgabl yutuqlar uchun qadah cho'qishtirdi...

– Nima bo'ldi, o'rtoq Mirzaxo'jayeva? Javob bo'lmadi... E ha, u bir oyna, eshitayapsizmi, oyna! U bir dilbuzar, xola dilbuzar! – Televizor qiblagohda. – zaynab momochap tarafida bo'ldi. Shu bois, Zaynab momo chap tarafidan yuzini burdi. Ro'molini peshonasiga tortib qo'ydi. Bu o'rinda Zaynab momoning ijtimoiy hayotdagi konflikti ham asosli yaratilgan. Chunki u hayoti davomida islomiy g'oyalarni qalbiga singdirgan, o'z hayotini eng og'ir sharoitlarda ham, o'z e'tiqodidan kechmagan inson sifatida tasvirlanadi.

Zasynab momo 30-yillardagi azobu-uqubatlarni, ziddiyatli hayotini hali unutgan emas. Qalb qo'ridanb o'rin olgan bu dahshatli voqealarni o'ylaganda, azobdan, titroqdan yuragi zirqirab og'rir ammo uning istiroiblarini faqat o'zigiuna hazm qila olardi. Shuning uchun ham 60-yillarga odimlagan bo'lsada o'sha mashhum kunlarni yoddan chiqarmaganligini, bu esa ota oanasidan ayriliq damlarini yodga solar, anashunda hayot murakkabliklari qarama-qarshiliklari ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Bu esa uning tuhiyatidagi qarama qarshiliklar, iztiroblar natijasi edi.

Hayotning shafqatsizligidan Botir Firqa o'z-o'zidan gapirish odatini chiqardi. O'zi gapirib – o'zi kulgich odat chiqardi. Bu odatni oldin o'zi ham bilmaydi, o'zicha numadir bo'ldi, deb o'ylardi. Nahotki, tentak-pentak bo'lib qolgan bo'lsam, – deb o'ylanib, ajablanib o'z ichki olami bilan tortishar, o'zini-o'zi terlashga harakat qilardi. U tez-tez tevarak atrofga alang-jalang qilar, nahotki, hayot zarbalari shu qadar murakkablashadi, Axir tinimsiz mehnatlar zoya ketgan bo'lsa, deya ichgki dunyosi bilan olishardi. Shunday bir vaqtda ko'nglining bir qismi do'xtirga bor, – deya murojat qilardi, ammo hech nima bo'lmaganidek, yana ichki istiroblar iskanjasiga yashirindi.

Bu o'rinda “ Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” romanining ichki tuzilishiga muvofiq holda ifodalanadi. Badiiy asarning g'oyaviy badiiy qimmatini syujetning puxta hamda tasirchanligini unda konfliktning mazmunini va shunga mos shakliga uning qanday hal qilinishiga bog'liqligini anglaymiz. Agar asar mavzusi muhim bo'lib, konfliktning mazmuni shunga mosligi, ya'ni shakliga, uning qanday hal qilinishiga bog'liq. Agar asarning mavzusi muhim bo'lib, konflikt zid bo'lsa, mazmun ham sayoz bo'ladi, ilgari surilayotgan g'oya ta'sirchanlik kasb etmaydi. Ijodning g'oyaviy boshlanishi, obrazlardagi qarama-qarshiliklarning yuzaga chiqishi, uning yozuvchi tomonidan yaxshi tanlanishiga bog'liqligini alohida qayd etiladi. Konfliktning o'zi avvalo ma'lum hayotiy kurashni jamiyat taraqqiyotidagi ziddiyatlarni anglatadi. Shu hayotiy mazmunga asosan, asarga negiz etilgan konflikt badiiy estetik kategoriyata sifatiga e'tirof etiladi. Bunda hayotiy ziddiyatlar bo'y basti bilan namoyon qilinib, asosiy tasvirlanishi zarur. Hayotdagi mavjud qarama-qarshiliklarni badiiy konflikt sifatida talqin etishda

yozuvchi asar g'oyasiga mos holda uni badiiy konflikt asosida fantaziya orqali ifodalab beradi. Xuddi anshu urinish vositasida asr g'oyasi teranlik kasb etadi.

“Boisi zamon yomon: sovet tuzumida kim amaldor bo'lsa, o'sha odam maraz. Sovet tuzimida kim mansabdor bo'lsa o'sha odam mal'un. Sovet tuzimi raisi muttaham. Sovet tuzimi direktori ablax. Kechagini tuxumdan chiqqan zumrashalar... sovet tuzimi ariqlarni tagini kovlaydi. Hali burnini ham artib olmagan jirqanchalar sovet tuzimi raharlari tagini kovlaydi” – deya ichki istirob ilinjida azoblanadi. Bu tuzumga xizmat qilib, hayotini o'tkazganiga ich-ichidan achinadi. Bu insonlar Botir Firqani qiliqlarini bilib qolsalar ich-ichidan xursand bo'ladi. Ular uning oldida mag'rur bo'lib qoladi. Shuning uchun ularga bildirmaslikga harakat etadi. Axiri, kunlarning birida tortina-tortina kampiriga aytadi. Uning bu dardidan u ham istirobga tushadi.

Agar Adabiyotshunoslik nazaryasidagi fikrlariga tayanadigan bo'lsak: Kundalik turmushdagi, kishilar o'rtasidagi, bo'lib turuvchi har qanaqa to'qnashuvlar, har qanaqa ziddiyatlar ham badiiy konflikt uchun material bo'la olmaydi. Faqat ijtimoiy konfliktga ega bo'lga ma'lum hayotiy konsepsiyasi, maqsadini aks ettirishga xizmat qila oluvchi, buning uchu o'zida zarur imkoiniyatlarni mujassam etgan muhim turmush qarama-qarshiliklarigina konflikt uchun malum material bo'la oladi.

Bu xususiyatlarni Tog'ay murodnind “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” romanida haqqoniy tasvirlar orqali yuzaga chiqara olganligini alohida qayd etmoq zarur.

XULOSA.

Istedodli yozuvchi takrorlanmas uslub egasi Tog'ay Murod o'zining asarlari bilan o'zbek adabiyotida o'z o'rnini, kitobxonini topolgan ijodkordir. Yozuvchining "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarri ham o'lmas asarlaridan biri sifatida sevib o'qilaveradi. Ammo bu istedadli yozuvchi olamdan juda erta ketgan bo'lsa-da, uning asarlari, yaratgan badiiyat namunalari asrlar osha yashab qolaveradi.

"Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asaridagi xarakterlar silsilasi va obrazlar galareyasi syujet yaratish mahorat ham o'zining istedadini namoyon qiluvchi, ko'z-ko'z etib ko'rsatuvchi poetik unsurlardan mahorat bilan foydalana olganligini ko'ramiz.

Yozuvchi bu romanda o'zbek xalqi hayotini yashash tarzini, ziyolilarimizning ma'naviy turmushini ko'rsatib bergan sanatkorlardan biri sanaladi.

Asar syujet linyasida Botir Firqa xarakterini ochib berganini ko'ramiz. Bu obraz orqali ijtimoiy konfliktlar ularning o'ziga xos davr qurboniga aylanib borishi ham mahorat bilan yoritib berilgan.

Realistik yozuvchilar xalqning oliy va ezgu maqsadi bilan mos tushagigan ulug'vor g'oyalarni badiiy etuk shakllarda ifodalanishini ko'zlaydi. Buning uchun g'oyaviy mazmun bilan badiiylikni bir-biriga muvofiq kelishiga erishish san'ati muhimdir. Asarda haotiy ziddiyatlarning ziyolilar fojiasini hayotiy konfliktlar asosida talqin qilinishi hayotimizdagi og'ir sharoitlarni romanni bosh konflikti manbai sifatida tanlab tarixiy voqelikni izchil haqqoniy ifoda etishda sadoqat ko'rsatib, xalq hayotini tasvirlaydi bu esa mazmunning tasirchanligini

oshiradi. Bu bilan inson hayotining murakkab va ko'p qirraligi tasvirda paydo bo'lib, g'oyadagi ishoniruvchanlik kuchini namoyon qiladi. G'oyaviylik bilan badiiylik qanchalik yuqori bo'lsa uy asarning muvofiqiyati, estetik tasirchanlik shunchalik kuchli bo'ladi. Shu sababli hayotni badiiy gavdalantirish, uni ifodalash prinsiplari, usullari hamda vositalarini sayqallashtira borishning ahamiyati kattadir. Buni badiiylik komponentlaridan konflikt orqali, ayniqsa yaqqol ko'rish mumkin.

Asar komponentlari orasida konflikt g'oyaviylik bilan badiiylik bir butunlikda yaxlitlikda zohir bo'lishni taminlovchi maydoon mohiyatiga molikligi sababli ham yozuvchi uning hayotiy negizida tasirbaxsh bo'lishiga alohida masuliyat bilan yondashadi.

Ayni chog'da badiiy konfliktning yuqoridagidek xarakterlar kollegiyasi shaklida hukm surishi roman uslubiga xoslik, origiunallik bag'ishlaydi. Personajlarning xarakterli individual xususiyatlarini davr va muhit mohiyatidan kelib chiquvchi, real psixologik vaziyatlarning maxsulli sifatida gavdalantiradi.

Yozuvchi har bir obrazni yaratar ekan, shu guruhga dahldor bo'lgan juda ko'plab qahramonlarning eng xarakterli xususiyatlarini ajratib olishga va keyinchalik bu xislatlarni konkretlashtirib berishga, hamda asar g'oyasiga monanad qilib tasvirlashga harakat etadi. Davrning ulkan g'oyalarini tashuvchi badiiy tiplar, ziddiyatlar girdobigan olib otiladi. Ayrim g'ishtlardan oismono'pr binolar yaratilganidek, turli tuman kishilardan terib olinbgan xislatlardan badiiy tiplar yaratiladi. Asarda badiiy syujrt xarakterlar mantig'I, ijtimoiy muhit ramzi, konfliktlar juda asosli o'z ifodasini topadi. tasvirga olingan qahramonlar psixologiyasi, kurash va intilishlari, shuningdek

qahramonlar faoliyati kechayotgan voqelik va ularga dahldor tomonlarning mohiyati qarida singib ketadi. Natijada Botir Firqa xarakteri konfliktlar silsilasida yoritiladi.

Xulosa qilib, bu asar tarkibidagi hayotiy qarama-qarshiliklar, xarakter tasviri, mahoratli yozuvchi Tog'ay Murod tomonidan asosli ifodalanganligini alohida qayd etish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистонб 1994 йил
2. Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайдди. – Тошкент. «Шарқ» 2001 йил.
3. Умутов Х. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент. Фан. 1983 йил
4. Адабиёт назаряси II томлик. I том. Адабий асар. – Тошкент. Фаню 1978 йил
5. Иззат Султон. Адабиёт назаряси. – Тошкент «Ўқитувчи» 1986 йил
6. Тоғай Мурод. «Бу дунёда ўлиб бўлмайдди», Роман. Тошкент, 2002 йил.